

YUSUF XOS HOJIB DUNYOQARASHIDAGI ONTOLOGIK QARASHLAR

Jurayev Sherali Soibnazar o'g'li

*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va
texnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi, PhD.
e-mail: sherjon191@gmail.com*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Yusuf Xos Hojibning badiiy janrlar orqali borliqni tushuntiruvchi kategoriyalar tahlil qilinadi. Yusuf Xos Hojib falsafiy qarashlarining shakllanishida Farobiy va Ibn Sino falsafasining ta'siri seziladi.

Yusuf Xos Hojib qarashlarida ham inson hech qachon erishganlariga qanoat qilmasligi, u hamma vaqt bilmaganini bilishi, hali qo'lga kiritilmagan yutuqqa muyassar bo'lishi uchun intilishi lozimligi aytiladi.

Kalit so'zlar: *O'gdulmish, Elig, ruh, iloh, Tazkirat al-avliyo", ishq.*

ABSTRACT

This article analyzes the categories of Yusuf Khos Hajib explaining existence through artistic genres. The influence of the philosophy of Al-Farabi and Ibn Sina is felt in the formation of Yusuf Khos Hajib's philosophical views.

Yusuf Khos Hajib's views also state that a person should never be satisfied with what he has achieved, that he should always know what he does not know, and strive to achieve what has not yet been achieved.

Keywords: *Ogdulmish, Elig, ruh, iloh, Tazkirat al-awliyo, ishq.*

Yusuf Xos Hojibning ruh, iloh haqidagi tasavvuri tasavvuf ta'limotiga asoslangan, ya'ni xudo tabiatdan tashqaridagi alohida vujud emas, u butun borliqqa, tabiatga singib ketgan. Barcha mavjud narsalar xudoning hozir – nozirligiga ishora qiladi. Bu, to'g'rirog'i tasavvufning panteistik oqimini ifodadaydi. Mutaqaddirning fikricha, amal, mansab, martaba, davlat, boylik o'tkinchi, bebaho, bevafo, bir kelib ketadigan nisbiy narsa. Ular o'zgaruvchan, tez keladi va tez ketadi. Shuning uchun kelgan baxt, qut va davlatga uchmaslik, aysh-ishratga ko'ngil bermaslik, behuda ishlar bilan umrni o'tkazmaslik kerak. Yusuf Xos Hojibning bu qarashlari uning ilohiy ishq haqidagi solikning Yor vasliga yetish uchun bu foni dunyodagi tayyorgarligi, fanodan baqoga o'tish uchun o'zini tayyorlash, deb tushunish mumkin.

Asardagi har bir obraz o'ziga xos bir olam. Lekin ularni yaxlit holda qaragandagina muallifning bosh maqsadi ayon bo'ladi.

“Qutadg'u bilig” dostonini o'rganishdagi muhim vazifalardan biri siyosiy va hayotiy donolik majmuasini tuzayotganda Yusuf Xos Hojib foydalangan manbalarni aniqlashdir. Bu yo'nalishda ayrim ishlar amalga oshirilgan. Biz hozir mutafakkir Somoniylar O'rta Osiyosining badiiy adabiyoti va fani ilmi bilan yaxshi tanish ekanligidan shubha qilmaymiz. Hattoki ma'lum darajada u aynan shu yo'nalishda ijod qilgan. Biroq bu borada doston hali yetarli darajada

o'rganilmaganligini ham tan olish lozim. Fikrimizcha, dostonning bir lavhasi kishi e'tiborini o'ziga tortadi. Bu lavhaning qaerdan kelib chiqqanligini aniq topish mumkin. Bu lavha birinchi qarashda ahamiyatsizga o'xshaydi. Ammo bu lavhaning manbaasini aniqlash Yusuf Xos Hojib duch kelgan adabiy ta'sirlarni aniqlashga imkon berishini ko'rsatishga harakat qilamiz. Xususan, Ye.E.Bertels bu holatni o'zining "Sufizm i sufiyskaya literatura" asarida qo'yidagicha izohlaydi: Bu lavhani biz dostonning radl nashridagi 42 bobida topamiz. O'gdulmish Eligning buyrug'iga muvofiq, darvesh O'zg'urmishning huzuriga uni Elig saroyiga taklif qilish maqsadida ketdi. O'zg'urmish hukmdor bilan o'z donoligini bo'lishishi kerak edi. O'zg'urmish rad javobini beradi va buning asosida O'zg'urmish va Eligning elchisi o'rtasida bobning asosiy mazmunini tashkil qiluvchi suhbat boshlanadi. Suhbatda Yaqin va O'rta Sharqning turli pandnoma asarlarida yuqori o'rinni egallangan avlodlar haqidagi mavzu yoritiladi. Kimki avlodsiz vafot etsa, ortidan ko'plab qiz va o'g'illar qolishini istab qayg'uradi. Agarda bir insonning vafotidan so'ng o'g'li qolsa, u insonni tirik deb atagin. Agarda inson avlodsiz vafot etsa, uning nomi dunyodan o'chdi. Joyi esa bo'sh. Bu azal-azaldan Yaqin Sharqda ma'lum bo'lgan oddiy nuqtai nazar. U har xil yodgorliklarda qaytariladi. Ammo dostonda O'zg'urmish bu nuqtai nazarga zid bo'lgan fikrni ifoda etadi. Sen avlod haqida orzu qilib siqilasan. Ammo bu mehrni bilgan o'g'il va qizlar qani? Agarda sen ta'qiqlanganni yig'ib ketsang, u qoladi. Sen bu orzuni o'ylab faqatgina qo'yg'uga duch kelasan. Qara, nikoh qurayotgan qayiqqa o'tirdi, qayiq u bilan dengizga yo'l oldi. O'g'il yoki qiz tug'ilganida qayig'i sinib ketadi. Qayiq sinib ketsa, to'lqinlarda kim tirik qolur? Bu nuqtai nazarning aynan darveshlik xususiyatlari islomning qoidalariga keskin ziddiyatda ekanligini tan olmaslik mumkin emas. U buddaviylik, moniylik, ma'lum xristian sektalari uchun tabiiy edi, biroq so'fiy muhitida ham u g'ayrioddiy jaranglamoqda. Shu bilan birga bunday fikrlarni musulmon adabiyotidan ham topish mumkin. Mashhur fors shoiri Farididdin Attor (taxm. 1230 v.e.) so'fiy shayxlarining hayotiga bag'ishlangan "Tazkirat al-avliyo" deb nomlangan asarida ayniqsa O'rta Osiyoda mashhur bo'lgan shayx Ibrohim Ibn Adhamga ahamiyatli o'rin ajratadi. Afsonaga ko'ra, Ibrohim Balx podshohi bo'lgan edi. Ammo taxtdan voz kechib, xotini va o'g'ilini tashlab, qashshoqlikda og'ir jismoniy mehnat bilan band bo'lib, Madinada yashagan ekan. Nikoh haqidagi masalalar bo'yicha Attor unga shunday qarashlarni xos deb yozgan. "Darveshlar so'rashdi: Nega sen uylanmaysan? Javob berdi Ibrohim: Qaysi ayol yalangoyoq va och qolish uchun turmushga chiqadi. Agarda qo'limdan kelsa, boshqasini maftun qilib uylanishdan ko'ra men o'zim bilan o'zim ajrashardim! Keyin ular (Ibrohim-E.B.) boshqa darveshdan so'radilar: Sening xotining bormi? U javob berdi: Yo'q. So'radilar: Bolalaring bormi? Javob berdi: Yo'q. So'zladilar: Bu yaxshi. Darvesh so'radi: Nega? Javob berdilar: Uylangan darvesh qayiqqa o'tirdi. O'g'li tug'ilganidan so'ng qayiq cho'kib ketdi".⁴⁸¹ Ishonch bilan aytish mumkinki, bu so'zlarni Attor Ibrohim Ibn Adhamniki deb tasodifan aytmagan. Xudi shuni Attor o'zining qiziqarli

⁴⁸¹ Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература М.:1965. С.94.

dostonlaridan biri bo'lgan "Ilohiynoma"da ham qaytaradi. Bu dostonning uchinchi bobida Attor Ibrohim Ibn Adhamning darvesh bilan suhbat haqidagi hikoyani qaytarib shayxning oxirgi so'zlarini shunday ifodalaydi.- Uylangan darvesh qayiqqa ovqatsiz va uyqusiz o'tirdi. Agarda unda o'g'il tug'lsa qayiq cho'kib ketadi. Fikrimcha, birinchi biz qayd etishimiz lozim bo'lgani bu "Qutadg'u bilig" dostonidan keltirilgan lavhani Attorning ikkala iqtibosi bilan mutlaq to'g'ri kelishi. Bu dostonni Attorga ta'sir etganligi mumkin emasligi sabab, bu o'xshashlikning yagona mumkin bo'lgan talqini ikkila muallif bir manbadan foydalanganligidir.

Bu qaydlardan so'ng biz fikrlashimizning boshlang'ich asosi sifatida xizmat qilgan dostonga qaytishimiz mumkin. Hikoyaning bir xilligi manbaning umumiylikiga hech qanday shubha tug'dirmaydi. Biz buni yuqorida ta'kidlab o'tdik. Ammo bu manbani ishonch bilan aniqlash imkoniyati hozirda yo'q. Bu masalani hal qilish ikki yo'nalishda bo'lishi mumkin.

Adib falsafiy dunyoqarashida Forobiy va Ibn Sinoning ta'siri yaqqol ko'zga tashlanadi. U moddiy dunyo yaralishini ruhiy kuchga bog'laydi va yettita yulduz va o'n ikkita burj haqida gapiradi. Olam va undagi jame'yki jonli va jonsiz mavjudot Olloh tomonidan yaratilganini ta'kidlaydi. U borliqni doimo harakatda ekanligini aytadi va yulduzlarning doimo aylanib turishini e'tirof etadi.

Yusuf Xos Hojib yettita yulduzning nomlarini birma – bir sanaydi. Ularning turish o'rnini va xususiyatlarini keltirib o'tadi. Asarda buni qo'yidagicha talqin etadi:

Yaratti ko'r avran tuchu evrilur,
Aning birla tezginch yema tezginur.
Yashil ko'k yaratti uza yulduzi,
Qara tun to'rutti, yaruq kunduzi.
Qayusi o'rurak, qayusi qudu,
Qayusi yaruqroq, qayusi ansudi.
Bularda eng ustun Sekantir yurur,
Eki yil sekiz ay bir evda qalur.
Aning basa bo'ldi ekkin O'ngay,
Bir evda qalir, o'n adin ekki ay.
Buning mazmuni qo'yidagicha:
Yaratti falakni doim aylanar,
U birla bu charh ham doim tebranar.
Yaratti yashil ko'kni yulduzi bilan,
Qora tun yaratti u kunduz bilan.
Baland ba'zilari va past ba'zisi,
Yoruq ba'zilari va sust ba'zisi.
Bulardan eng ustda sekantir yurar,
Bir uyda ikki yil, sakkiz oy qolar.
Bo'lib keldi ikkinchi so'ngra O'ngay,

Bir uyda qolar o'n yana ikki oy.⁴⁸²

Shuningdek, Yusuf Xos Hojib uchinchi bo'lib Ko'rud kelishini, u g'urur bilan yurishini, keyin Yashiq kelishini, olamni yoritishini, beshinchi bo'lib Savit keladi, keyin Yalchiq yuradi, quyosh bilan qarshi kelganda to'lishadi, deydi. Yusuf Xos Hojib yetti yulduz deganda qo'yidagilarni nazarda tutgan:

Sekantr – Zuhul – Saturn

O'ngay – Qoraqush – Yupiter

Ko'rud – Mirrix – Mars

Yashiq – Kun – Quyosh

Sevit – Zuhro – Venera

Arzu – Utorud

Ay – Yalchiq – Oy⁴⁸³

Islomning Markaziy Osiyoda mustahkamlangan bir davrda yozilgan Yusuf Xos Hojibning asarida teizm ruhi ravshan ko'rinib turadi. U Ollohni e'tirof qilish va din, shariat yo'lini bir dam unutmaslikka targ'ib qiladi. Lekin dunyoviy, hayotiy masalalarda, hayot uchun kurash masalalarida dinga mute bo'lib qolmaslikka, dunyoviy tadbirlarni diniy e'tiqodga qurbon qilib yubormaslikka chaqiradi. Dinning o'zi ham dunyodan voz kechishni targ'ib qilmaydi, olamdan yuz o'girib tarki dunyo qilish betayinlik, unda dunyo bir bo'sh narsa bo'lib qoladi. Dunyo ne'matlaridan voz kechmaslik, undan bahramand bo'lish va boshqalarni ham bahramand etish lozim, quruq toat-ibodat qilish bilan Olloh karamiga erishib bo'lmaydi, deb hisoblaydi. Eng avval to'g'ri, adolatli, insofli bo'lish, bilim va zakovatga tinmay intilish kerak, degan ta'limotni izchillik bilan ilgari suradi.

ADABIYOTLAR

1. Sodiqov Q. Qadimgi turkiy xalqlarning diniy falsafiy qarashlari. T.:2004.
2. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература М.:1965
3. Валитова А. Юсуф Баласагунский и его труд “Кутадгу билиг”. Москва “АН СССР” 1952.
4. Мухамедов А.А. Юсуф Хос Ҳожиб ва Мишел Монтен ахлоқий қарашлар ининг компаративистикаси // Монография.—Тошкент: Олтин Қалам нашриёти, 2024. — В.198.

⁴⁸² Karimov Q. Yusuf Xos Hojib “Qutadg'u bilig”. T.Fan.:1971. B. 74.

⁴⁸³ Sodiqov Q. Qadimgi turk falsafasi. T.:2008. B. 86.